



## GEOGRAPHICAL ASPECTS OF ORGANIZATION OF SPORTS AND EXTREME TOURISM IN BAKMAL DISTRICT

**Mashrab Rustamovich Usmanov**

Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences

Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

[mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

Jizzakh, Uzbekistan

**Bagila Kenesbayeva**

3rd-year student, Geography program

Jizzakh State Pedagogical University

e-mail: [bagilakenesbayeva@gmail.com](mailto:bagilakenesbayeva@gmail.com)

Jizzakh, Uzbekistan

**Sevinch Toshtemirova**

3rd-year student, Geography program

Jizzakh State Pedagogical University

e-mail: [toshtemirovasevinch555@gmail.com](mailto:toshtemirovasevinch555@gmail.com)

Jizzakh, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Active sports, sports tourism, extreme tourism, accommodation facilities, international competitions, mountain tourism, infrastructure, mountaineering, hostels and sanatoriums, tourist visits.

**Received:** 14.02.26

**Accepted:** 15.02.26

**Published:** 16.02.26

**Abstract:** This study presents proposals and recommendations for the development of the fascinating mountains, historical monuments and sacred sites of the Bakhmal district, accommodation facilities, sports tourism, international competitions in extreme tourism, the "Sakayra" international competition with the participation of young people from foreign countries at the "Mogol" MFE, extreme mountain tourism in the village of Jom-Jom every year, and sports tourism infrastructure.

## BAXMAL TUMANIDA SPORT VA EKSTREMAL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

**Mashrab Rustamovich Usmanov**

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jizzax davlat pedagogika universiteti

[mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

**Bag'ila Kenesbayeva**

Geografiya yo'nalishi 3 kurs talabasi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
e-mail: [bagilakenesbayeva@gmail.com](mailto:bagilakenesbayeva@gmail.com)  
Jizzax, Uzbekistan

**Sevinch Toshtemirova**

Geografiya yo'nalishi 3 kurs talabasi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
e-mail: [toshtemirovasevinch555@gmail.com](mailto:toshtemirovasevinch555@gmail.com)  
Jizzax, Uzbekistan

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit so'zlar:** Sportning faol turlari, sport turizm, ekstremal turizm, joylashtirish vositalari, xalqaro musobaqalar, tog' turizmi, infratuzilma, alpinizm, hostellar va sanatoriy, turistik tashriflar.

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda Baxmal tumanining maftunkor tog'lari, tarixiy yodgorliklari va muqaddas ziyoratgohlari, joylashtirish vositasi, sport turizmi, ekstremal turizm bo'yicha xalqaro musobaqalar, "Mo'g'ol" MFYda xorijiy davlatlarning yoshlari ishtirokida "Sakayra" xalqaro musobasi, Jo'm-jo'm qishlog'ida har yili ekstremal tog' turizmi, hamda sport turizmi infratuzilmasini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

---

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНОГО И  
ЭКСТРЕМАЛЬНОГО ТУРИЗМА В БАХМАЛЬСКОМ РАЙОНЕ****Маишарб Рустамович Усманов**

Доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент  
Джизакский государственный педагогический университет  
[mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)  
Джизак, Узбекистан

**Багила Кенесбаева**

Студентка 3 курса, направление «География»  
Джизакский государственный педагогический университет  
e-mail: [bagilakenesbayeva@gmail.com](mailto:bagilakenesbayeva@gmail.com)  
Джизак, Узбекистан

**Севинч Тоштеммирова**

Студентка 3 курса, направление «География»  
Джизакский государственный педагогический университет  
e-mail: [toshtemirovasevinch555@gmail.com](mailto:toshtemirovasevinch555@gmail.com)  
Джизак, Узбекистан

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Активный отдых, спортивный туризм, экстремальный туризм, объекты размещения, международные соревнования, горный туризм, инфраструктура, альпинизм,

**Аннотация:** В данном исследовании представлены предложения и рекомендации по развитию живописных гор, исторических памятников и священных мест Бахмальского района,

---

|                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| хостелы и санатории, туристические<br>поездки. | объектов размещения, спортивного<br>туризма, международных соревнований по<br>экстремальному туризму, международного<br>соревнования «Сакайра» с участием<br>молодежи из зарубежных стран на МФЭ<br>«Могол», ежегодного развития<br>экстремального горного туризма в селе<br>Джом-Джом и инфраструктуры<br>спортивного туризма. |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Baxmal Jizzax viloyatining eng go‘zal go‘shalaridan biri hisoblanadi. Tuman o‘zining betakror tabiati, maftunkor tog‘lari, tarixiy yodgorliklari va muqaddas ziyoratgohlari bilan mashhur bo‘lib, mahalliy va xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Tuman hududida “Novqa ota”, “O‘smat ota” kabi 10 dan ortiq ziyorat turizmi maskanlari hamda 60 dan ziyod arxeologik yodgorliklar joylashgan. Tumanda 675 o‘rinli 33 ta joylashtirish vositasi, mehmonxonalar, kempinglar, hostellar va sanatoriy faoliyat yuritmoqda. 2025-yilda tumanga 45 mingga yaqin xorijiy va 170 mingga yaqin mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Sport turizmiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jo‘m-jo‘m qishlog‘ida faoliyat yuritayotgan sport bazasi masofaviy piyoda sport bo‘yicha xalqaro musobaqalarni o‘tkazib, har yili turli mamlakatlardan ishtirokchilarni jalb etmoqda. Turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan sarmoyalar jalb etilgab bo‘lib, yangi loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bularning barchasi Baxmal tumanini sayyohlar va sarmoyadorlar uchun tobora jozibador hududga aylantirmoqda.

So‘nggi yillarda Baxmal tumanida turizm sohasini diversifikatsiya qilish va yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda sport turizmi Baxmalning tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari bilan uyg‘unlashgan holda, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida ajralib turadi. O‘zbekistonning tog‘li hududlari - Chimyon, Beldersoy, Amirsoy, Zomin kabi maskanlar tog‘ chang‘isi, alpinizm, paraplanerizm, tog‘ velosipedi va boshqa faol sport turlari uchun qulay sharoitlar yaratadi. Tabiiy iqlimiy sharoit esa yil davomida turli sport turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Aynan ushbu holatlar Baxmal tumanida ham o‘z orniga ega.

Sport turizmining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni jismoniy faollikka jalb etish va milliy sport turlarini ommalashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yo‘nalish mahalliy infratuzilmaning rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga sabab bo‘ladi. Ushbu tadqiqotda Baxmal tumanidagi sport turizmining hozirgi holati, infratuzilma imkoniyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy ta‘siri hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot maqsadi sifatida Baxmalda sport turizmining hozirgi holatini o‘rganish hamda sport turizmi infratuzilmasining

rivojlanish darajasini baholashni, shu bilan bir qatorda sport turizmining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini aniqlash muhimdir. Soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Sport turizmi bilan shug'ullanuvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar, sportchilar, turizm operatorlari hamda soha mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish kabi yirik sport-turizm obyektlari faoliyatini o'rganib, Baxmal tajribasini boshqa xududlar (masalan, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston) bilan solishtirish. Bahmalda sport turizmi uchun zarur bo'lgan infratuzilma, jumladan, mehmonxonalar, sport zallari, qutqaruv xizmatlari, tibbiy yordam ko'rsatish shoxobchalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat sayyohlar uchun qulay sharoitlarning yetishmasligiga olib kelmoqda.

Ma'lumki har yili Baxmal tumanida ekstremal turizm bo'yicha xalqaro musobaqalar tashkillashtirilib turiladi. 2024 yilning 10-11 noyabr kunlari Baxmal tumani "Mo'g'ol" MFYda xorijiy davlatlarning yoshlari ishtirokida "Sakayra" xalqaro musobaqasi o'tkazildi. Mazkur musobaqada Jizzax viloyatidan Sambraham universiteti, Baxmal turizm va servis texnikumi hamda Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi va Hindiston davlatlaridan 200 nafar yoshlar ishtirok etishdi. Musobaqa davomida yoshlar Mo'g'ol tog'lari bo'ylab 6 km dan ortiq masofaga yugurish bo'yicha bellashdilar. Musobaqa yakunlariga ko'ra A.Kamiljanov (Sambraham universiteti talabasi) faxrli birinchi o'rinni, A.Toxirov (Baxmal tumani turizm va servis texnikumi talabasi) faxrli ikkinchi o'rinni, A.Alibekov (Qozog'iston davlati) faxrli uchinchi o'rinni egalladi va qiz bolalar o'rtasida Y.Nikolaeva (Rossiya Federatsiyasi) faxrli birinchi o'rinni, Y.Darya (Rossiya Federatsiyasi) faxrli ikkinchi o'rinni va N.Maxmudova (Baxmal turizm va servis texnikumi talabasi) faxrli uchinchi o'rinni egallashdi.



Shu bilan birga Baxmal tumanining go'zal Jo'm-jo'm qishlog'ida har yili ekstremal tog' turizmi bo'yicha xalqaro talabalar asosida musobaqalar o'tkaziladi. Bu xalqaro musobalarqa

an'anaviy tarzda tashkillashtirilib, yoshlar orasida ekstremal tog' turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jo'm-jo'm qishlog'ida Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekistondan 200 nafardan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Yurtimiz sharafigi Samarqand viloyati va Baxmal tumani turizm kolleji talabari himoya qilishdi.



### *Jo'm-jo'm qishlog'ida ekstremal turizm bo'yicha xalqaro chempionatdan taqdirlash jarayoni*

Musobaqaning taqdirlash marosimida viloyat turizm boshqarmasi xodimi A.Egamberdiev va Rossiya sport turizm federatsiyasi a'zosi Y.Kalaev ishtirok etishdi. Shundan 24 ta jamoa 47 ta yo'nalish bo'yicha bahslashishdi. Piyodalar masofasi, velosport, arqon bo'ylab belgilangan muddatda yetib kelish, arqonda yuqoriga tirmashib chiqish yo'nalishlarida yakkalik, juftlik va aralash jamoa bahslarida kuch sinashishib birinchi o'rin Rossiya Federatsiyasi, ikkinchi o'rin O'zbekiston va uchinchi o'rin Qozog'iston vakillariga nasib etdi. G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Baxmal tumanida sport va ekstremal turizmni rivojlantirish va tashkil etish orqali ushbu hududga yanada turistik oqimni oshishiga sabab bo'ladi hamda tumanda sport turizmi infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko'rish zarur bo'ladi: Yangi sport obyektlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish; tog' instruktor-gidlar maktablarini tashkil etish; kadrlar salohiyatini oshirish, musobaqalar, ekspeditsiyalar va sport-turizm sayohatlarini muntazam tashkil etish, tog'larda yangi marshrutlar, Jamoat qatnovlarining nazoratini kuchaytirish va birinchi yordam tibbiy punktlarini yaratish. Baxmalda sport turizmini rivojlantirish uchun infratuzilmani takomillashtirish, xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu esa Baxmalning turizm salohiyatini yanada oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son farmoni "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. E.Yu. Daurenov Turizm. Darslik. T 2014 yil.
3. T.Xoldarov. X.Tulenova. Turizm (Sayyohlik): Oquv qollanma T. 2010
4. X.I.Misirxonov "Baxmal tumanida sport-turizmning rivojlanish bosqichining iqtisodiy tahlili". "Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiyallari. 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.
5. <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/163>